

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

Rektor "TASDIQLAYMAN" Sh.S.Sirojiddinov

2023-yil "28" avgust

Ro'yxatga olindi: № \_\_\_\_\_  
2023-yil \_\_\_\_\_

## ADABIYOTSHUNOSLIK TARIXI

### O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Mutaxassislik:** 70230104 - Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi AT 105	Fan/modul turi majhuriy	Ta'lim tili o'zbek			Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024	
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	Auditoriya mashg'urati (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Adabiyotshunoslik tarixi	5	4	60	90	150
	<b>Jami:</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>60</b>	<b>90</b>	<b>150</b>

## 2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunoslik erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtayi nazaridan o'rganishdan iborat. Ush fanning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: jahon adabiyotshunoslik tarixi manbalarini global ko'lamda ekanini tasavvur qilish, adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlar mohiyatini aniqlash;

Fanni o'qitishning vazifasi - Sharq va G'arb tafakkurlararo mushtarak farqli jihatlarga tipologik yondashish, qadimgi davrda yaratilgan (Shum Yunon, Rim, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda yaratilgan) adabiyotshunoslik oid asarlarni o'rganish, Uyg'onish davri adabiyotshunosligining jahon adabiy-nazariy tafakkuri tarixidagi o'rni belgilash adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qilgan adabiy oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o'rni belgilash, XX asr yangi davr adabiyotshunosligini vujudga kelishida omil bo'lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixida o'rni belgilashdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

##### 1-mavzu. "Adabiyotshunoslik tarixi" fanining maqsad va vazifalari

Adabiyotshunoslik ilmining mohiyati va uning gumanitar fanlar tizimidagi o'rni. Adabiyotshunoslik ilmiy tizim sifatida. Adabiyotshunoslik tarixining maqsadi adabiy-ilmiy tafakkur tarixini tadqiq etishga erishish ekanligi.

Adabiyotshunoslik tarixini o'rganishda davrlashtirish tamoyillaniga suyanish. Adabiyotshunoslik tarixida davr (stadiya, epoxa, period) tushunchasining mohiyatini anglash. Miflik tafakkur va kanonizatsiya davrlar mohiyatini anglatuvchi omillar sifatida. Adabiyotshunoslik tarixidagi eng yirik tarixiy davrlarni aniqlash. Miflik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya davrlarining mohiyatini anglash va ularning har bir milliy adabiyotdagi o'rni tushunish.

«Adabiyotshunoslik tarixi» fanining maqsad va vazifalarini belgilashda aniq fanlarning so'nggi yutuqlarini ham inobatga olish.

##### 2-mavzu. Qadimgi davr (Misr, Shumer, Xitoy, Hindiston) Sharq adabiyotshunosligi

Qadimgi Misrda adabiyotshunoslikning ilk manbalari. Tarixiy va diniy manbalarda adabiy-nazariy tasavvur.

Shumer va Bobilda adabiy-nazariy qarashlar. Adabiy ta'lim o'choqlari. «Bilgamish» - adabiy-nazariy manba sifatida. Adabiy-estetik tafakkurning Bobil manbalari. Akkad adabiyotida nazariy qarashlar.

Qadimgi Xitoyda «adabiyot» tushunchasining talqini. Ifoda shakllari (nash, nazm) haqidagi qarashlarning shakllanishi. Ma'no va shakl munosabati. Konfutsiy ta'limoti. Badiiy nasr namunalardagi adabiy-nazariy fikrlar. Uch sulola davrida estetik qarashlar.

Hindistonda Sanskrit poetikasi. She'rriyat haqidagi qarashlar. Alankara - bezaklar nazariyasi. Yashirin javhar - dxvani nazariyasi.

##### 3-mavzu. Antik (Yunon, Rim) adabiyotshunoslik

Yunonistonda adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti. Suqrotgacha bo'lgan davrda estetik qarashlar. Yetti donishmandlar davri. Homer ijodi va uning davrida adabiy-nazariy qarashlar. Suqrot va Aflotunning adabiy-nazariy qarashlari. Arastu hakim estetikasi va nazariy ta'limoti. "Poetika", "Ritorika" asarlari.

##### 4-mavzu. Qadimgi Rimda adabiy-nazariy qarashlar tarixi

Vergiliyning adabiy qarashlari. I-IV asrlarda adabiy-estetik qarashlar Plotin va yangi-aflotunchilik estetikasi. Lutsiy Seneka ta'limoti. Psevdo-Longin adabiy yuksaklik haqida. Ellinizm davrida adabiy-estetik qarashlar. Vizantiyada adabiy-nazariy qarashlar.

##### 5-mavzu. Markaziy Osiyo va Eronda adabiy-nazariy qarashlar

Markaziy Osiyoda estetik tafakkur chashmalari. Qadimgi ashyolarda aks etgan adabiy-estetik tasavvur. Til tafakkurning reallashuv shakli. Sak (skif)larning adabiy qarashlari. Ilk afsona va miflardagi adabiy-estetik qarashlar.

"Avesto"da ezgu so'z poetikasi. So'g'd yodgorliklaridagi nazariy qarashlar. O'rxun-Enasoy obidalarida nazariy fikrlar. "Devonu lug'atit turk" asari tarkibida adabiyotshunoslikka oid lavhalar. Asardagi adabiy janrlar tasnifi.

Qadimgi Eronda adabiy-nazariy qarashlar. "Avesto"ning Eron manbalari. "Zand" va adabiyotshunoslik.

##### 6-mavzu. O'rta asrlar Sharqda adabiyotshunoslik. Islom renessansi

Islomga qadar arab (johiliya davri) adabiyotshunosligi manbalari. Islom Renessansi. Adab ilmlari tasnifi. Aruz ilmining shakllanishi (Xalil ibn Ahmad, Axfash). Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslikning taraqqiyoti (Forobiy, Beruniy va Ibn Sino risolalari). Fors aruzining shakllanishi (Qays Roziy, Aruzi Sayfiy v.b.), Turkiy aruz manbalari (Shayx Ahmad Taroziy).

Balag'at ilmlarining shakllanishi (Ibn Mu'tazz, Umar Roduyoniy, Rashiddin Vatvot asarlari). "Funun ul-balag'a" she'r navlari, qofiya va badiiyat ilmining qomusi sifatida. Qofiya ilmi (Abdurahmon Jomiy risolasi). Markaziy Osiyoda tazkirachilik taraqqiyoti. Abu Mansur as-Sa'olibiy, Avfiy Buxoriy. Hirot Tazkirachilik maktabi. Davlatshoh Samarqandiy tazkiralari.

#### 7-mavzu. O'rta asrlar Sharqda adabiyotshunoslik

Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlari adabiyotshunosligi. O'rta asrlar koreys adabiyotshunosligi.

Yaponiyada adabiy-estetik qarashlar. Ilk adabiyotshunoslar. Samuraylar qissalari yoki Xunka adabiyoti. She'r nazariyasining shakllanishi.

#### 8-mavzu. Yevropada o'rta asrlar adabiyotshunosligi

Yevropa o'rta asrlar adabiyotshunosligi manbalari. San'atda "muqaddas yolg'on" nazariyasi. Avgustin tomonidan Pifagor nazariyasining yangilanishi. Foma Akvinskiy qarashlarining adabiyotshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. "Yorqin shakl" nazariyasi.

#### 9-mavzu. Uyg'onish davri adabiyotshunosligi

Yevropa Uyg'onish davri adabiyotshunosligi manbalari. Renesans nazariyasi va adabiyotshunoslikdagi o'rni. Ijodkor adabiyotshunos va munaqqid sifatida. Italyan Uyg'onishi manbalari. Dante Aligeri uslub haqida.

Ispan adabiyotshunosligi. Ritsarlik adabiyoti. Servantesning adabiy qarashlari. Leonardo da Vinchi san'at asarining jonliligi haqida.

Ingliz Uyg'onishi adabiy manbalari. Shekspir va Ishonch nazariyasi. Sidney she'riyat himoyasida. Fransuz adabiyotshunosligi. Petrarka va Bokachcho. Go'zallik yashirin tabiat sifatida. Dyurer dohiylik haqida.

Poetik entuziazm (Jordano Bruno). Tanqidda isyon yo'nalishi.

#### 10-mavzu. XVII-XVIII asrlar G'arb adabiyotshunosligi

Yevropa klassitsizmining italyan (Skaliger), ingliz (Ben Donson), fransuz (Per-Daniel Yue, Nikola Bualo) va olmon (Yustus Shottel) manbalari. Falsafada aql, san'atda qoida hukmronligi. Bekon va Dekart qarashlari. Gobbsning estetik psixologiyasi. Did va aql estetikasi. Klassitsizmining yangilanishi. Leybnis va Spinoza.

Ingliz adabiyotshunosligi maktablari. Yum va uning empirizmi. Idrok etish madaniyati (Berkli). Siyosat va san'at (Reyd). Go'zallikning abstrakt mohiyati (Reynolds). Iste'dodning qoidalardan yuqori ekanligi.

Fransiya va Italiyada yangi genetik metod (Viko). San'at va nutq (Kordilyak). Ma'rifatchilikning nazariy asoslari (Russo). Didro dramatik poeziya haqida.

Germaniyada ma'rifatparvarligining adabiy manbalari. Gyote va Shilleming estetik qarashlari. Lessing she'riyat va san'atning plastik turlari haqida. Gamburg dramaturgiya maktabi. Badiiy in'ikos nazariyasi (Moris).

#### 11-mavzu. XVI-XIX asr arab-fors-turk adabiyotshunosligida mushtarak janr va shakllar

Arab adabiyotshunosligi manbalari. Ibn Xaldun va uning "Muqaddima" asari. Arab adabiyotshunosligida tazkiralari turlari. Shoirlar va valiyar tazkiralari. Ularda adabiyot nazariyasiga va alohida ijodkorlarga oid ma'lumotlar.

Tazkiralarning tasniflanishi. Turkiy tazkirachilik taraqqiyotida Navoiyning roli. "Majolis un-nafois"ning strukturasi va nazariy ko'lami. Navoiyga izdoshlik. Sodiq Afshar, Mutribiy va Nisoriy tazkiralarning qamrov darajasi. Tazkiralarning bayoz va majmualarga yaqinlashuvi. Ahmad Tabibiy va Sadi Ziyo tazkiralari.

Nazariy risolalarda adabiyotshunoslik ilmi. Ilmi badi' mustaqil fan sifatida (Atoulloh Husayniy). Turkiy aruz nazariy tamoyillarining ishlanishi. Alisher Navoiy va Boburning aruz ilmiga doir risolalari.

Tasavvufiy ruhdagi asarlarda adabiyotshunoslik. Manojib-holotlar biografik janr sifatida. Valiyar tazkiralarda badiiy ijod masalalari. "Nasoyim ul-muhabbat"da adiblar ijodiga baho. Is'hoq Bog'istoniy va Majzub Namangoniy tazkiralarda ulug' shoirlar ijodi.

#### 12-mavzu. Adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanishi. Nemis klassik estetikasi adabiyot haqida

Adabiyotshunoslik ilmining mustaqillikka erishuvida Gerder ta'limotining roli. San'at falsafasi. Olmon klassik faylasuflari tomonidan adabiyotshunoslikning rivojlantirilishi. Kant va uning va tanqidiy mulohazalari. Adabiy yuksaklik haqida. Gumbold va uning antropologik maktabi.

Romantizm estetikasi. F.Shlegel ta'limoti. Ratsionalizm va romantizm uyg'unligi (Jan Pol). Ironiya va yumor nazariyasi (Kerkeger). Shelli sistemasi. O'rtaasrchilikka qiziqish (Uitman).

Estetika adabiy-nazariy qarashlarning asosi sifatida. Adabiyot "absolyut idealizm" qamrovida. Shelling nazariya san'at tizimi. Hegel dialektikasi va uning adabiyotshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. Sharq simvolizmi falsafiy tizimda.

#### 13-mavzu. Adabiyotshunoslik fan asrida

Ironiya nazariyasi (Zolger). Talqin nazariyasi. Shleyermaxer Germenevtika asoschisi sifatida. San'at – tasavvur o'yini. Metafizik paradoks (Shopengauer). Fransuz idealizmi Sen Simon qarashlarida. Naturalizm demokratik qarash sifatida (Zolya). "San'at san'at uchun" nazariyasining shakllanishi. Edgar Po estetik ideal haqida.

Metafizika krizisi. Gegel qarashlarining modernizatsiyasi (Fisher). Nishe va uning san'at nazariyasi. Sog'lom va tushkun san'at dualizmi (Vagner). "Quy" estetikasi. Fexner va uning eksperimental metodi. Germgols fiziologik nazariyasi. Darvin "evolyusiy" nazariyasi"ning adabiyotshunoslikka ta'siri. Spenserning estetik qarashlari.

#### 14-mavzu. Adabiyotshunoslikdagi akademik maktablar

Adabiyotshunoslikdagi akademik maktablar. XIX asr rus adabiyotshunosligida sotsial tanqid va uning tarafdorlari. V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy va N.Dobrolyubov.

Adabiyotshunoslik taraqqiyotida akademik (mifologik, psixologik va formal v.b.) maktablarning o'zmi. Mifologik maktab va uning namoyandalari. Duglas, aka-uka Grimlar. A.N.Veselovskiy va uning tarixiy poetika maktabi. Ukrain adabiyotshunosi A.A.Potebnya tomonidan nazariy poetikaning shakllantirilishi.

Formal maktabning shakllanishi. Rus formal maktabi vakillari. V.Shklovskiy, Eyxenbaum, B.Jirmunskiy, Y.Tinyanov.

O'zbek olimlari A.Hayitmetov, N.Mallayev, B.Qosimov, B.Valixojayev, N.Komilov va b. olimlar yaratgan ilmiy maktablarning o'ziga xosligi.

#### 15-mavzu. Adabiyotshunoslik tarixida adabiy oqim va yo'nalishlar

Sentimental va lirik intuitsiya. Kroche tomonidan estetikaning soddalashtirilishi. Simvolizm nazariyasining "hukmronligi" (E.Kassirer, S.Langer). A.A.Richards semantik tahlil haqida. Semantikada estetik plyurealizm. Relyativ estetik (Dyui, Lalo). Moris Geyger va uning "fenomenologik estetikasi".

XX asr adabiyotshunosligidagi ilmiy tizim va nazariyalar. Modernizm va uning adabiyotshunoslikdagi ko'rinishlari: akmeizm, futurizm, ratsionalizm v.b. Sosrealizm va uning tanqidi.

Neomodernizm adabiy harakat sifatida. Uning ko'rinishlari: syurrealizm, ekspressionizm, konstruktivizm, ekzistensializm: absurd dunyosida yolg'iz inson, "ong oqimi", neoabstraksionizm.

Postmodernizm adabiy harakat sifatida (uning asosiy yo'nalishlari): pop-art, "demokrat-iste'molchi", sonoristika, aleatorika, musiqiy puantilizm, giperrealizm, xepening v.b.

#### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi Sharq adabiyotshunosligi manbalari.
2. Shumer va Bobilda adabiy-nazariy qarashlar.
3. Yunonistonda adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti.
4. Antik davr adabiyotshunosligi manbalari. Arastu va uning "Poetika"si.
5. Islom estetikasi. Ilmiy adab va uning tarkibi.
6. Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslikning ilk manbalari.
7. Ilmiy badii va uning taraqqiyoti.
8. Forobiy va Ibn Sino asarlarida adabiyotshunoslik.
9. Turkiy aruz manbalari. Shayx Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Bobur.
10. Adabiyotshunoslik taraqqiyotida tazkiraning roli. Davlatshoh, Alisher Navoiy, Mutribiy tazkiralari.
11. Yevropa Uyg'onish davri adabiyotshunosligi.
12. Ma'rifatchilik davri adabiyotshunosligi.
13. Adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanishi.

14. Alisher Navoiy va Bobur asarlari adabiyotshunoslik manbalari sifatida.
15. Adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanishi. Klassitsizm, romantizm, realizm v.b.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

16. Antik adabiyotshunoslik manbalari. "Poetika", "Ritorika".
17. Islomiyat davri adabiyotshunosligi. Forobiy, Beruniy, Nizomiy Aruzii Samarqandiy asarlari.
18. Yevropa Uyg'onish davri adabiyotshunosligi. Dante, Leonardo da Vinchi, Bokacheho.
19. Alisher Navoiy va Bobur asarlari adabiyotshunoslik manbalari sifatida.
20. Klassitsizm va ma'rifatchilik adabiyotshunosligi. Bualo, Didro, Lessing.
21. Markaziy Osiyoda tazkirachilik taraqqiyoti. Avfiy Buxoriy, Nisoriy, Tabiiy tazkiralari.
22. Yevropa mumtoz estetikasi taraqqiyotida adabiyotshunoslikning o'rni. Gegel "Estetika"si, V.G.Belinskiy asarlari.
23. Adabiyotshunoslik fan asrida.
24. Adabiyotshunoslikda falsafiy oqimlarning roli.
25. Adabiyotshunoslik janrlari.
26. Adabiyotshunoslik terminologiyasi identifikatsiyasi.
27. Modernizm, postmodernizm va uning ko'rinishlari.
28. Adabiyotshunoslik taraqqiyotida akademik (mifologik, psixologik va formal v.b.) maktablarning o'rni.
29. XX asr adabiyotshunosligidagi ilmiy tizim va nazariyalar.
30. Adabiyotshunoslik janrlari.
31. Adabiyotshunoslikning ilmiy tizimga aylanishi (Herder).
32. Adabiyotshunoslik fan asrida.
33. Adabiyotshunoslikda falsafiy oqimlarning roli.
34. Adabiyotshunoslik janrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
35. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid qarashlari.
36. Boburning adabiyotshunoslikka oid qarashlari.
37. Ilmiy adab va uning tarkibi.
38. Yevropa klassitsizmi va marifatchiligida nazariy qarashlar.

#### V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- adabiyotshunoslikning ilk manbalari, badiiy va tarixiy asarlar tarkibidagi nazariy qarashlar, mumtoz va nazariy poetikaning ilmiy asoslari, jahon mumtoz adabiyotshunosligidagi asosiy nazariy qarashlar taraqqiyoti, Sharq va G'arb adabiyotshunosligining genetik ildizlari va tarixi, XX asr adabiyotshunosligidagi ilmiy tizim va san'at nazariyasiga doir umumiy qonuniyatlar haqida bilimga.
- antik davr adabiyotshunosligi, islomgacha bo'lgan Sharq adabiyotshunosligi manbalari, o'rta asrlar va G'arb uyg'onish davri adabiyotshunosligi, Sharq mumtoz poetikasi manbalarini, jahon adabiyotshunosligidagi akademik

	<p>maktablar, adabiyotshunoslikdagi adabiy oqim va yo'nalishlarni bilishi va ulardan foydalana olish <b>ko'nikmasiga</b>,</p> <p>- adabiyotshunoslik tarixidagi asosiy nazariy manbalarni tahlil qilish, adabiyotshunoslik tarixini yaxlit adabiy-ilmiy jarayon sifatida qabul qilish, badiiy matn talqini va tahliliga doir ilmiy tajribalarga bildirish, adabiyotshunoslik asarlarini tahlil qilish, adabiyotshunoslik janrlarining genetik ildizlari va qo'llanilish mohiyatini tushunish, adabiyotshunoslikdagi terminologiya masalalari identifikatsiya qila olish <b>kasbiy kompetensiyalariga</b> ega bo'ladi.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar tayyorlash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar) lar uyushtirish;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Talabalarining kreditlarini olish tartibi</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan "Adabiyotshunoslik tarixi" fanidan I-semestrda 150 soat <u>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</u>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <u>ijobiy baholanib, kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</u> talabaga I-semestrda 5 kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan <u>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</u></p> <p>Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarining bilimini baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olaydi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> - talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi hamda fan haqida tasavvurga ega deb</p>

	<p>topilganda;</p> <p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Valixujayev B. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XV asrlar. – T., 1993.</li> <li>2. Сирожидинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.</li> <li>3. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд. Т.: Mumtoz so'z. 2015.</li> <li>4. Шарк мумтоз поэтикаси Х.Болтабоев талкида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.</li> <li>6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).</li> <li>7. Ш. Мирзиёев. Буёқ келажакимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга кураемиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.</li> <li>8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).</li> <li>9. Стебляева И.В. Ритм и смысл в тюркоязычной классической поэзии. Москва, "Восточная литература", 1993.</li> <li>10. Болтабоев Х. Адабиётшунослик тарихи. Магистратура таълими учун дарслик. – Т.: Mumtoz so'z, 2016.</li> <li>11. Буало Н. Шейрий санъат. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.</li> <li>12. Гильберт К., Кун Х. История эстетики. Перевод с английского. М.: Изд. иностранной литературы, 1960.</li> <li>13. Иггтон Т. Теория литературы. М., 2010.</li> <li>14. История Всемирной литературы. В 9-ти томах. М.: Наука, 1983-1998.</li> <li>15. Литературные манифесты западноевропейских классицистов. Собр. текстов. – М.: Изд. МГУ, 1980.</li> <li>16. Литературные манифесты западноевропейских романтиков. – М.: Изд. МГУ, 1980.</li> <li>17. Куронов Д., Рахмонов Б. Гарба адабий-танқидий қарашлар. – Т., 2009.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>18. <a href="http://www.kutubxona.uz">http://www.kutubxona.uz</a></li> <li>19. <a href="http://www.literature.uz">http://www.literature.uz</a></li> <li>20. <a href="http://www.ziyounet.uz">http://www.ziyounet.uz</a></li> </ol>